



Bolalarda diqqatning rivojlanishi va uning o'ziga xosligi.

Madumarov Talantbek Tolibjonovich

Andijon davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti dekani, yuridik fanlari
doktori, professor

G'ulomova Diyora Axlidin qizi

Andijon davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti talabasi

Karimov Ozodbek

Andijon davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti talabasi

Anotatsiya: Xozirgi kunda ijtimoiy hayotda bola tarbiyasi uning to'g'ri rivojlanishi eng muhim dolzarb masala bo'lmoqda. Quyida siz mana diqqatning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Ong, obyekt, qiziqish, faoliyat, rivojlantirish, ixtiyorsiz diqqat.

Diqqat - bu ongning konsentratsiyasini ta'minlaydigan ob'ektning psixik xususiyatlarini, holatlarini aks ettirishga qaratilgan aqliy bilish jarayoni. Muayyan mavzularga bo'lgan bunday e'tibor tanlangan yo'nalishga ega va ularga individual munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalarda diqqat juda erta rivojlana boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko'rinmasa ham, oradan sal o'tmay, ya'ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyoriy diqqat alomatlari yaqqol ko'rina boshlaydi. Demak, bolaning bir oylik davrida uning diqqatini har xil kuchli qo'zg'atuvchilar (qattiq tovush, ortiqcha yorug'lik kabi) ixtiyorsiz ravishda o'ziga jalb qila boshlaydi. Ikki-uch oylik bolalar esa, «shaqir-shuqur»ga quloq soladigan (shaqildoqlarning tovushiga ovunadigan) bo'la boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqatlarini yorqin (yaltiroq) rangli narsalar ham beixtiyor jalb qila boshlaydi. Bolaning ko'z o'ngidagi narsa qanchalik rang-barang bo'lsa, bola unga shunchalik ko'p e'tibor beradi. Bolalarda diqqat juda erta rivojlana boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko'rinmasa ham, oradan sal o'tmay, ya'ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyoriy diqqat alomatlari yaqqol ko'rina boshlaydi. Demak, bolaning bir oylik davrida uning diqqatini har turli kuchli qo'zg'atuvchilar (qattiq tovush, ortiqcha yorug'lik kabi) ixtiyorsiz ravishda o'ziga jalb qila boshlaydi. Ikki-uch oylik bolalar esa, shaqir-shuqurga quloq soladigan (shaqildoqlarning tovushiga ovunadigan) bo'la boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqatlarini yorqin (yaltiroq) rangli narsalar ham beixtiyor jalb qila boshlaydi. Bolaning ko'z o'ngidagi narsa qanchalik rang-barang bolsa, bola unga shunchalik ko'p estetik beradi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqati nihoyatda beqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, bolaga yangi o'yinchoq bersangiz u o'yinchoqni juda qiziqib ko'ra boshlaydi. Lekin ayni shu paytda yana bir boshqa o'yinchoqni ko'rsatsangiz, birinchi o'yinchoqni



tashlab, ikkinchisiga talpinadi. Yasli yoshidagi bolalar diqqatining beqarorligi fiziologiya nuqtai nazaridan ularda hali tormozlanish protsesslarining kuchsizligi bilan bog'liqdir. Tormozlanish jarayoni qo'zg'alish jarayonining keng yoyilib ketishini to'xtata olmaydi. Ana shuning uchun kichik bolalarning diqqati bir narsadan ikkinchi narsaga chalg'ib ketaveradi. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining g'oyat beqaror bo'lishi turmush tajribalarimng juda ozligi bilan ham bog'liqdir. Bolalarga hamma narsa yangilik bo'lib tuyulaverganidan ularning diqqatlari bir narsadan ikkinchi narsaga tez-tez chalg'ib ketaveradi. Bola ko'z o'ngidagi narsaning o'zi bolaga juda qiziq tuyulgani sababli ham diqqati chalg'ib ketadi. Masalan, N.M.Menchinskayaning hikoya qilishicha, Sasha (1 yosh 8 oylik) echki va uning bolalari haqidagi ertakni zo'r qiziqish bilan tinglaydi. Bo'ri kelib eshikni taqillatgani hikoya qilinganda, Sasha bo'rining qanday taqillatganini ko'rmoqchi bo'lib, devorga tap-tap yetib uradi, lekin ba'zan taqillatishga shu qadar mahliyo bo'lib ketadiki, ertakni tamomila unutib qo'yadi. Ilk bolalik davridagi bolalarda diqqatning bo'linuvchanligi juda zaif, ko'lami esa tor bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini faqat ko'zlariga yaqqol ko'rinib turgan bir narsagagina qarata oladilar. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining rivojlanishida nutqning roli juda kattadir. Bolaning tili chiqib nutqni egallay boshlashi, katta kishilar bilan muloqotda bo'lishdan tashqari, ularning ko'rsatmalarini bajarish imkoniyatini ham beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kichik yoshli bolalar kattalarga qarashishni, imkoniyatlari boricha ularning mehnatlariga aralashishni juda yoqtiradilar. Kattalarning iltimos va topshiriqlarini bajonidil ado etadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid oddiy yumushlarni qiziqib bajaradilar, ota-onalarining uy-xo'jalik ishlarida qarashishga harakat qiladilar. Mana shularning hammasi, diqqatni ma'lum darajada to'plash va muayyan bir maqsadga qaratishni talab etadi. Bu esa bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga asos yaratadi. Bog'cha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq, kichik yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullansa diqqatini o'stiradi mustahkamlaydi.

Kichik yoshdagi bog'cha bolalarida kun sayin paydo bo'ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o'yin faoliyatlarining xilma-xil bo'la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi Bog'chada jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblaiga bo'ysunish, qoidali o'yin shartlarini so'zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado yetish kabi hollar bog'cha yoshidagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o'yinning roli juda kattadir. Chunki turli o'yinlar paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarni ilgari suradilar. O'yinlarning qanday qoidalar asosida yo'nalishini o'zlari mustaqil ravishda tanlab oladilar. O'yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o'z harakatlarini o'yin qoidalariga moslashtirishga va o'yinda qatnashuvchi o'rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga intiladilar



Ana shunday o‘yinlarda ixtiyorsiz diqqat bilan birga ixtiyoriy diqqat ham faol ishtirok etadi, binobarin, bolalarning o‘yimi uchun sharoit yaratib beradi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, ixtiyoriy diqqat iroda bilan bog‘liq, shuning uchun ham ko‘pincha bolalar diqqatning bu turini o‘zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Dastlabki paytlarda diqqatning ixtiyoriy turini har xil savollar va topshiriqlar berish yo‘li bilan rivojlantirib borish kerak. Bog‘cha yoshidagi bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya‘ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o‘rta va katta guruh bolalarining) bir ish ustida uzoq vaqt davomida o‘tira olishlaridan, ba‘zi o‘yinlarni zerikmay soatlab o‘ynay olishlaridan, ta‘limiy mashg‘ulotlarda chidam bilan o‘tira olishlaridan bilishimiz mumkin. Maktabgacha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda kun sayin paydo bo‘ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o‘yin faoliyatlarining xilma-xil bo‘la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta- sekin takomillashtirib boradi. Maktabgacha ta‘lim muassasasi tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo‘ysunish, qoidali o‘yin shartlarini so‘zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam va qunt bilan ado etish kabi hollar maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o‘yinning roli juda kattadir. Chunki, turli o‘yinlar paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma‘lum maqsadlarni ilgari suradilar. O‘yinlarning qanday qoidalar asosida o‘ynalishini o‘zlari mustaqil ravishda tanlab oladilar. O‘yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o‘z harakatlarini o‘yin qoidalariga moslashtirishga va o‘yinda qatnashuvchi o‘rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga tirishadilar. Ana shunday o‘yinlarda ixtiyorsiz diqqat bilan birga ixtiyoriy diqqat ham aktiv ishtirok etadi. Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlana boshlashi uchun sharoit yaratib beradi. Shuni ham nazarda tutish kerak-ki, ixtiyoriy diqqat iroda bilan bog‘liq, shuning uchun ham bolalar diqqatning bu turini o‘zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Dastlabki paytlarda diqqatning ixtiyoriy turini har xil savollar va topshiriqlar berish yo‘li bilan rivojlantirib borish kerak. Bog‘cha yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanishi faqat bog‘chadagi sharoitgagina emas, balki ko‘p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog‘liqdir. Shuning uchun ham bolalarning diqqati bir tekisda va bir darajada rivojlanmaydi. Ayrim bolalar oilada tegishli nazorat ostida bo‘lmasligi, yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborilganligi sababli o‘zlarining xatti-harakatlari, hulq-atvorlarini tartibga sololmaydilar. Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o‘tira olmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga quloq solmaydigan bo‘ladilar. Bunday bolalarda diqqat juda beqaror bo‘lgani uchun ular hech bir narsa ustida qunt bilan mashg‘ul bo‘la olmaydilar. Diqqatni boshqara bilmaslik, ya‘ni ma‘lum muddat davomida bir narsaga yo‘naltira olmaslik mashg‘ulotlarda intizom buzish va boshqalarga xalaqit berishga olib keladi. Ana shuning uchun tarbiyachilar bunday bolalarga nisbatan individual munosabatda bo‘lishlari (har xil mas‘ulyatli topshiriqlar berish va hokazo), ularda diqqatning kuchini har onda barqarorlik xususiyatini tarbiyalab borishlari zarur. Bog‘cha yoshida bolalarda avvalgi



davrlarga nisbatan diqqatning ko‘lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko‘lami katta odamlarnikiga nisbatan hali ham juda tor bo‘ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko‘lami ayni vaqtda 5-6 narsani (bir-biri bilan bog‘lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig‘dira olsa, bog‘cha yoshidagi bolalar diqqatining kolami ayni bir vaqtda 1-2 narsanigina (kichik guruh bolalari 1 ta, o‘rta va katta guruh bolalari 2 ta) sig‘dira oladi.

Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo‘lishga harakat qilsalar ham, ammo buning uddasidan chiqa olmaydilar, Masalan, 3 yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to‘kib sochib olib keladi. Bu uning uquvsizligi, bo‘shangligidan emas, balki olz diqqatini ayni bir vaqtda ikkita narsaga bo‘la olmasligidandir. Bola o‘zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to‘kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo‘la olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi. Diqqat ko‘lamining kengligi aniq idrok qilish bilan bogliq bo‘lgan xususiyatdir. Bu xususiyat ayiiqsa bola diqqatining ko‘lami o‘qish faoliyati uchun zarur. Shuning uchun bolaning bog‘cha yoshidagi davrida barcha imkoniyatlardan keng foydalanib, diqqatning bu xususiyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bunda asosan, ekskursiyalar, inssenirovkalar, har sohaga doir rasmlar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar katta rol o‘ynaydi. Maktabdagi talim jarayoni uchun zarur bo‘lgan ixtiyoriy diqqat bog‘chada didaktik mashg‘ulotlar, hikoyalar o‘qib berish davomida rivojlantiriladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning diqqati ko‘pincha ko‘lami qiziqishi hamda hissiyotlari bilan bogliqligi sababli konsentrlashgan, ya’ni bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun bu

Ana shuning uchun bu yoshdagi bola diqqatining bo‘linuvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar diqqati bo‘linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko‘lamining torligi sababli ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar. Masalan, bog‘cha yoshidagi bolalar, odatda, bir hikoyani qayta-qayta eshita beradilar. Bu hodisaning sababi shundaki, bolalar diqqatining ko‘lami hikoyaning syujetini va personajlarini birdaniga sig‘dira olmaydi. Shuning uchun ular hikoya va ertaklarni qayta-qayta aylantirib eshita beradilar. Shunday qilib, bolaning bog‘chagacha va bog‘cha yoshidagi davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi ko‘proq rivojlanadi. Lekin bolaning bog‘cha yoshidagi faoliyat va xususan didaktik hamda mehnat mashg‘ulotlarining tizimli tarzda ortib borishi, ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, maktabdagi ta’lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljiy olmaydi. Shuning uchun bog‘chada turli majburiy mashg‘ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish kerak. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti maktabda ta’lim jarayonida amalga oshiriladi.

Diqqat har kanday faoliyatimizning doimiy yo‘ldoshidir. SHuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati ham benihoya kattadir. Bog‘cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o‘zib borishi uchun o‘yin juda katta ahamiyatga ega. O‘yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyda to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarini ilgari suradilar. Diqqat ham boshqa shaxslar, ham



jonsiz narsalar bo'lishi mumkin. Tabiat hodisalari, san'at va fan ob'ektlari ham ko'pincha sub'ektning diqqat markazida bo'ladi. Shuni tan olish kerakki, faqat unga katta qiziqish uyg'otadigan yoki ijtimoiy o'rganish zarurati bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlargina inson e'tibori zonasiga kiradi. Bu insonning ongli tanlovining yo'qligi bilan tavsiflanadi. Bu ta'sir qiluvchi stimul paydo bo'lganda paydo bo'ladi, bu sizni bir lahzada kundalik ishlardan chalg'itishga va aqliy energiyangizni o'zgartirishga majbur qiladi. Ushbu turdagi e'tiborni boshqarish qiyin, chunki u bevosita shaxsning ichki munosabatlariga bog'liq. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, bizni har doim faqat katta qiziqish uyg'otadigan, his-tuyg'ularni, hissiy sohani "harakatlantiradigan" narsa o'ziga jalb qiladi.

Beixtiyor diqqat ob'ektlari quyidagilar bo'lishi mumkin: ko'chada yoki xonada kutilmagan shovqin, ko'z oldida paydo bo'lgan yangi odam yoki hodisa, har qanday harakatlanuvchi narsalar, odamning ruhiy holati, individual kayfiyat.

Beixtiyor e'tibor o'zining bevositaligi va yuzaga kelishining tabiiyligi bilan qimmatlidir, bu har doim jonli hissiy munosabatni ta'minlaydi. Ammo, shu bilan birga, u odamni shoshilinch vazifalarni bajarishdan, muhim muammolarni hal qilishdan chalg'itishi mumkin.

Xulosa

Diqqatning rivojlanishi bevosita shaxsning yoshi, intilishlarining maqsadga muvofiqligi, o'rganilayotgan mavzu yoki hodisaga qiziqishi, maxsus mashqlarni muntazam ravishda bajarish kabi omillarga bog'liq. Shunday ekan bolaning atrofidagi muhitni uning diqqatini rivojlanishiga keng ko'lamli ta'sir etar ekan. Bolada diqqatni oiladan boshlab rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'ylaymanki bolalalikdan to'g'ri rivojlangan bola kelajakda yaxshi natijalarga erishadi. Unday shaxslar buyuk insonlar juda ko'p yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.T. Nishanova, N.G. Kamilova, D.U. Abdullayeva, M.X. Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" Toshkent-2018

2 Ivanov "Umumiy psixologiya"

3 www.ziyouz.com kutubxonasi

4. www.ziyounet.com